



NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YIL YANVAR-FEVRAL



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**15 470
birlik**



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

65,8 %



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning ulushi


103,9 %



O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 23 570 birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida 15 470 birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining **65,8 %** ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Taqqoslash uchun:

2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **64,4 %** ni, ya'ni **13 274** birlikni tashkil etgan. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ularning o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonidan (**21 199** birlik) **13 236** birligi xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilingan. Ularning xizmatlar sohasiga oid faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi ulushi **85,6 %** ni tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi esa **14,4 %** ni (**2 234** birlik) tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: **2022- yilning 1- mart** holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasining ulushi **65,0 %** yoki **14 892** birlikni tashkil etgan.


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi *(yanvar-fevral oylarida)* ¹⁾




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, **2023- yilning yanvar-fevral oylarida** bozor xizmatlari hajmi **1 573,9** mlrd. so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-fevral oylariga** (**115,5 %**) nisbatan o'sish sur'ati **104,5 %** ni tashkil etdi.

¹⁾ Bu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq har bir keyingi yil qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
(2023- yil yanvar-fevral oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	1 573,9	100,0	104,5
Navoiy sh.	567,8	36,1	106,5
Zarafshon sh.	215,5	13,7	102,0
G'ozg'on sh.	5,0	0,3	104,4
Karmana t.	237,1	15,1	103,1
Konimex t.	38,0	2,4	104,5
Qiziltepa t.	143,4	9,1	105,4
Navbahor t.	94,4	6,0	103,6
Nurota t.	68,9	4,4	102,9
Tomdi t.	20,8	1,3	102,3
Uchquduq t.	54,5	3,5	104,0
Xatirchi t.	128,5	8,1	104,2

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-fevral oylarida)



2023-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 506,5 ming so'mga yetdi. **2022-yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil etgan.


Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	1 506,5	102,4
Navoiy sh.	3 701,3	103,2
Zarafshon sh.	2 503,4	101,1
G'ozg'on sh.	552,1	103,2
Karmana t.	366,8	99,3
Konimex t.	1 771,1	100,3
Qiziltepa t.	1 024,3	102,8
Navbahor t.	908,2	103,6
Nurota t.	801,2	101,8
Tomdi t.	788,9	101,2
Uchquduq t.	1 332,1	100,3
Xatirchi t.	1 405,6	101,9

Kichik tadbirkorlik sektori iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, yangi ish o'rinlarini yaratishga, daromadlarni oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga yordam beradi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (yanvar-fevral oylarida)

2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida kichik tadbirkorlikning hajmi 290,9 mlrd. so'mga oshib, 907,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi 57,6 % ni, shu jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 16,1 % ini tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)


Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik umumiy hajmining 19,2 % i yoki 174,6 mlrd. so'mni Navoiy shahri egallaydi.



■ Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlarining ulushi **30,7 %** ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, moliyaviy xizmatlar **25,3 %**, transport xizmatlari **15,6 %**, yashash va ovqatlanish xizmatlari **5,9 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,4 %** darajasida qayd etildi. Ijara xizmatlarining ulushi **1,3 %** darajasida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida, % da)




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari **32,3 %** ni, ijara xizmatlari esa **2,0 %** ulushni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	1 573,9	100,0	104,5
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	68,5	4,4	127,8
Moliyaviy xizmatlar	398,5	25,3	127,5
Transport xizmatlari	246,2	15,6	99,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	216,0	13,7	101,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	93,3	5,9	92,6
Savdo xizmatlari	482,6	30,7	100,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	29,5	1,9	104,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	47,4	3,0	129,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	22,0	1,4	101,9
Ijara xizmatlari	20,8	1,3	89,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	24,4	1,6	94,5
Shaxsiy xizmatlar	46,3	2,9	102,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	43,4	2,8	54,2
Boshqa xizmatlar	51,0	3,2	100,3

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **117,3** mlrd. so'mga oshib, **398,5** mlrd. so'mga yetdi. Umumiy hajmida ushbu xizmatlarning ulushi **25,3 %** ni tashkil etdi. Umumiy moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **127,5 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2023- yil yanvar-fevral oylarida)

2023- yilning yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **92,8 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida, % da)	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	127,5
Navoiy sh.	120,5
Zarafshon sh.	124,0
G'ozg'on sh.	110,2
Karmana t.	132,7
Konimex t.	123,1
Qiziltepa t.	129,9
Navbahor t.	124,5
Nurota t.	124,4
Tomdi t.	120,1
Uchquduq t.	121,0
Xatirchi t.	121,8

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexa-nizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-fevral oylarida, mlrd. so'mda)




Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1-fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **786** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **5,1 %** ini tashkil etdi. Ulardan **777** birlik (**98,9 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

2023- yil yanvar-fevral oylarida transport xizmatlari hajmi **246,2 mlrd. so'mni** tashkil etib, **2022- yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **99,4 %** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari (yanvar-fevral oylarida)




Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi
(2023- yil yanvar-fevral oylarida)



Navoiy viloyatining geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiyalari tizimining mavjudligidir.

Transport xizmatlarining hajmi (2023- yil yanvar-fevral oylarida, mlrd. soʻmda)




2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan Navoiy shahrida transport xizmatlari hajmi 9,4 mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **45,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-fevral oylariga** nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **111,6** % ni tashkil etdi.

Gʻozgʻon shahrida ushbu koʻrsatkich **0,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **101,4** % ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlar kiradi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **216,0** mlrd. soʻmga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlari (yanvar-fevral oylarida)



2023- yil yanvar-fevral oylarida koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmi-dagi ulushi **13,7** %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari hajmi
(2023-yil yanvar-fevral, mlrd. soʻmda)

Navoiy viloyati	216,0	Qiziltepa t.	28,4
Navoiy sh.	38,4	Navbahora t.	18,2
Zarafshon sh.	28,7	Nurota t.	14,6
Gʻozgʻon sh.	0,7	Tomdi t.	5,8
Karmana t.	36,6	Uchquduq t.	10,2
Konimex t.	9,3	Xatirchi t.	25,1


Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxлари orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ulushi (**53,4 %** yoki **8 261** birlik) yetakchilik qilmoqda. Ulardan **99,8 %** ini (**8 243** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etadi.

2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 58,5 mlrd. so'mga oshib, 482,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan ushbu turdagi xizmatlar o'sish sur'ati 100,2 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari (yanvar-fevral oylarida)




 Hajmi, mlrd. so'mda  O'sish sur'ati, % da

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi **84,2 %** ni tashkil etdi.

S
a
v
d
o

x
i
z
m
a
t
l
a
r
i

Savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)




Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-fevral oylarida)

	<i>Hududlar kesimida savdo xizmatlari mlrd.so'mda</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Navoiy viloyati	482,6	100,2
Navoiy sh.	106,9	93,0
Zarafshon sh.	77,3	105,0
G'ozg'on sh.	0,4	92,3
Karmana t.	81,0	97,1
Konimex t.	13,4	103,1
Qiziltepa t.	56,4	98,6
Navbahor t.	37,2	98,6
Nurota t.	28,9	98,4
Tomdi t.	6,6	99,6
Uchquduq t.	22,5	101,2
Xatirchi t.	52,2	101,5

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra «Axborot va aloqa» faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **290** birlikka yetdi, shundan **282** birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari *(yanvar-fevral oylarida)*



2023- yilning yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **68,5** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **2022- yilning yanvar-fevral oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **127,8** %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi *(2023- yil yanvar-fevral oylarida)*



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
(2023- yil yanvar-fevral oylarida)

	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Oʻsish surʼati, <i>% da</i>
Navoiy viloyati	68,5	127,8
Navoiy sh.	16,1	155,3
Zarafshon sh.	6,3	131,6
Gʻozgʻon sh.	0,5	115,1
Karmana t.	8,5	128,5
Konimex t.	2,2	116,0
Qiziltepa t.	9,0	118,4
Navbahor t.	6,5	121,6
Nurota t.	5,7	119,1
Tomdi t.	0,9	121,4
Uchquduq t.	2,8	122,5
Xatirchi t.	10,0	114,8

2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan Navoiy shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **6** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **16,1** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarda hududning oʻsish surʼati **155,3 %** ni tashkil etdi.


Gʻozgʻon shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **0,5** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog’i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta’limni va turli kasblarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta’lim, shuningdek, kattalar uchun ta’lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta’lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o’xshash boshqalar kiradi.

Ta’lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o’qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko’rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)




2023- yil yanvar-fevral oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 47,4 mlrd. soʻmga yetdi. 2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan oʻsish surʻati 129,6 % ni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlarda eng yuqori oʻsish Navoiy shahrida kuzatildi, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida 140,3 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.


2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **365** birlikni tashkil etdi, shundan **293** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)



2023- yil yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **22,0** mlrd. so'mni yoki ko'rsa-tilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,4** % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 397** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1 393** birlik kichik biznes subyektlaridir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)

2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 2023- yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **8,0** mlrd. so'mga oshib, **93,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-fevral oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-fevral oylarida)



2023- yilning yanvar-fevral oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **29,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,9** % ni tashkil etdi. **2022- yil yanvar-fevral oylariga** nisbatan o'sish sur'ati **104,3** % ni tashkil etgan.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ●—● O'sish sur'ati, % da


Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-fevral oylarida, mlrd. so'mda)



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ijara xizmatlari (yanvar-fevral oylarida)



2023- yil yanvar-fevral oylarida ijara xizmatlari hajmi 20,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-fevral oylarida** avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **77,7 %** ni tashkil etdi.

Viloyatda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining to'lov qobiliyati va imtiyozlarining oshishiga, shuningdek, iste'molchilarning, ayniqsa AKTdan foydalangan holda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan talabini qondira oladigan kichik biznesning rivojlanishiga bog'liqdir.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-63-31